O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY SUDI HUZURIDAGI SUDLAR FAOLIYATINI TA’MINLASH DEPARTAMENTI SIRDARYO VILOYAT HUDUDIY BO‘LIMI BOSHLIG‘INING

23-UM -sonli

BUYRUG‘I

2025 yil 28 iyul Sirdaryo shahri

“Xarid komissiyasi tarkibini qayta tasdiqlash to‘g‘risida”

O‘zbekiston Respublikasining 2021 yil 22 apreldagi № O‘RQ - 684 sonli “Davlat xaridlari to‘g‘risida”gi qonuniga muvofiq, Davlat budjetidan va budjetdan tashqari maxsus jamg‘armadan ajratiladigan pul mablag‘laridan oqilona foydalanish maqsadida,

B U Y U R A M A N:

1. O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi huzuridagi sudlar faoliyatini ta’minlash departamenti Sirdaryo viloyat hududiy bo‘limiga tovar moddiy boyliklarni (ishlarni va xizmatlarni) xarid qilish bo‘yicha:

-tanlov orqali tovar (ishlar va xizmatlar)ning qiymati bir shartnoma bo‘yicha bazaviy hisoblash miqdorining 6000 (olti ming) baravarigacha bo‘lgan miqdorida;

-tender orqali tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) qiymati bir shartnoma bo‘yicha bazaviy hisoblash miqdorining olti ming baravaridan ortiq summani tashkil etishi va mazkur qonunda belgilangan boshqa talablarga amal qilgan xolda quyidagi tarkibda xarid komissiyasi tuzilsin:

Komissiya raisi:	bo‘lim boshlig‘i	-	M.K.Xidirov
Komissiya raisi o‘rinbosari:	bosh hisobchi	-	M.E.Usmanov
Komissiya a’zolari:	bosh muhandis	-	S.A.Shakirov
	bosh mutaxassis	-	M.O.Chulpanov
	xo‘jalik mudiri	-	M.Sh.Bayzakov
Komissiya kotibi:	rahbar kotibi	-	A.A.Nurjonov

2. Xarid komissiyasi a’zolarining lavozimi o‘zgargan taqdirda, uning o‘rniga tayinlangan xodim komissiya a’zosi sifatida faoliyat ko‘rsatishi belgilab qo‘yilsin.

3. Davlat xaridlari bo‘yicha barcha elektron savdo platformalarida reja jadvallarni kiritish, nizom talablariga muvofiq auksion, tanlov, tender e’lonlarini joylashtirish, Elektron do‘konda Davlat xaridlarini amalga oshirish va yagona yetkazib beruvchilar bilan shartnomalar rasmiylashtirilishda mas’ul etib hududiy bo‘lim bosh hisobchi Usmanov Muzaffar Erkinovich tayinlansin.

4. Muqaddam hududiy bo‘lim tomonidan harid komissiyasi tarkibini tasdiqlash bo‘yicha chiqarilgan buyruqlar o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

5. Ushbu buyruq ijrosini nazorat qilishni o‘z zimmamda qoldiraman.

Asos: O‘zbekiston Respublikasining 2021 yil 22 apreldagi № O‘RQ - 684 sonli “Davlat xaridlari to‘g‘risida”gi qonunining 20-moddasi.

Hududiy bo‘limi boshlig‘i **M.K.Xidirov**

Tanishdim M. Усманов

Tanishdim M. Байзаков

Tanishdim О. Шаскеров

Tanishdim A. Nurjonov